QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 11-avgust | 225-4-58-Q/25 | Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning 4-, 16-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo'l harakati to'g'risida”gi 900-sonli Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan, tuman hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida, tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2025-yil 29-martdagi 6-sonli aloqa xatini ko'rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2025-yil 29-martdagi 6-sonli aloqa xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qamashi tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i N.Raximov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i X.Xayrullayev va tuman yo‘llardan foydalanish DM direktori Sh.Almardonov tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini

oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati (N.Rasulov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishi tavsiy etilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Usmonov**

Qamashi tumani hokimining
2025-yil 11-avgustdagi
225-4-58-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1	70 V 701 “Qamashi-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 0-14,5-22,5 km oralig‘ida	3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan”	4 dona